

**AYOLLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK VA ULARGA QARSHI
KURASHISH USULLARI, SHUNINGDEK, UNI KELTIRIB
CHIQUARUVCHI SABABLAR**

Baxtiyorov Behzod Aliboy o‘g‘li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasining “Tergov faoliyati” yo‘nalishi, 2-kurs
talabasi

E-mail: bekzodbaxtiyorovv001@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada ayollarga nisbatan zo‘ravonlik va uni keltirib chiqaruvchi sabablar, ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etishda shart-sharoitlar yaratib beruvchi omillar, shuningdek mamlakatimizda ushbu turdagi jinoyatlarning salbiy oqibatlari hamda xorijiy mamlakatlardagi ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning solishtirma darajasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ayollarga nisbatan zo‘ravonlik, oilaviy zo‘ravonlik, gender tengligi, ayollar huquqlari, zo‘ravonlikka qarshi kurash, ayollarga nisbatan jinsiy, ruhiy, jismoniy zo‘ravonlik.

Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik – bu gender asosidagi zo‘ravonlik shakli bo‘lib, jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy tazyiq orqali ayollarning huquqlari va erkinliklariga tajovuz qilishni bildiradi.

Bugungi kunda bu masala mamlakatimiz va butun dunyoda dolzarb ijtimoiy va huquqiy muammo bo‘lib qolmoqda. Zo‘ravonlikni boshdan kechirgan har bir ayol – kimningdir onasi, singlisi yoki qizi hisoblanadi. “BMT-ayollar” va BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (BMT NJB) tomonidan Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish uchun kurash kuni — 25-noyabrda e‘lon qilingan. Xalqaro hisobotga ko‘ra, har kuni dunyo bo‘ylab 140 nafar ayol va qiz sherigi yoki yaqin qarindoshi tomonidan o‘ldirilmoqda, bu har 10 daqiqada o‘rtacha 1 nafar ayolga to‘g‘ri keladi. Bu haqda BMT axborot xizmati xabar berdi.

Ayollar va qizlarga nisbatan zo‘ravonlik dunyodagi eng keng tarqalgan va dunyoning barcha qismlarida mavjud inson huquqlari buzilishidan biri bo‘lib qolmoqda. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning asosiy sabablari bu oiladagi muammolar hisoblanadi. Bu holatlarga misol qilib, oila a‘zolarining kelishmovchiligi, qaynona va kelin o‘rtasidagi muammolar, mulkiy mojarolar sababli yosh oilalarda zo‘ravonlik va huquqni cheklash kabi muammolar yuzaga kelmoqda.

Bu zo‘ravonliklarning kelib chiqish sabablari asosan er va xotin o‘rtasida bo‘ladi va asosiy muammolarni ba‘zi yosh oilalar zo‘ravonlik orqali hal etadi va bu zo‘ravonliklarning oldini olish uchun asosiy yechimlar biri bu oila nimaligi anglamay turib erta turmush qurishni oldini olish va shuningdek, alkagol iste‘mol qilish orqali erkaklar o‘zlarining ayollariga zo‘ravonlik qilib, ularning huquqlarini cheklashini yaqqol misol qilsak bo‘ladi.

“Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining uchinchi moddasida zo‘ravonlik turlariga ta’rif berilgan ular quyidagilar:

jinsiy zo‘ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan ularning rozilgisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish orqali jinsiy daxlsizlikka va jinsiy erkinlikka tajovuz qiladigan zo‘ravonlik shakli, shuningdek zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash;

jismoniy zo‘ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan og‘irligi turli darajada bo‘lgan tan jarohatlari yetkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko‘rsatmaslik, zo‘ravonlik xususiyatiga ega boshqa

huquqbuzarliklar sodir etish, jismoniy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazishning o'zga choralari qo'llash bilan tahdid qilish orqali xotin-qizlarning hayoti, sog'lig'i, erkinligi hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan zo'ravonlik shakli hisoblanadi. Ushbu turdagi zo'ravonlikka misol qilib urning xotiniga yoki oila a'zolarining qo'llari va oyoqlari bilan tan jarohati yetkazishi tushuniladi.

zo'ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralari qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik);

iqtisodiy zo'ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan turmushda, ish joylarida va boshqa joylarda amalga oshirilgan zo'ravonlik shakli, xotin-qizlarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlanishga bo'lgan huquqini, mulk huquqini, ta'lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat (harakatsizlik);

Ayollarga nisbatan zo'ravonlikni keltirib chiqaruvchi sabablar hozirgi kunda erta turmush qurish va shuningdek bir birining huquqlariga cheklov qo'yish kabi muammoli vaziyatlar sabab bo'ladi va ushbu sabablarni oiladagi boshqa a'zolar tomonidan aralashuvi oqibatida vujudga keladi. Ko'plab oilalarda, ayniqsa qishloq hududlarida erkaklarning qo'llab quvatlovchi qadriyatlar mavjud va bu qadriyatlar ayollarni oiladagi ikkinchi darajali inson sifatida ko'riladi. Ikkinchi darajali inson sifatida ko'rilish ya'ni uning huquqlarini cheklovchi turli xil buyruqlar va ularni "o'rgatish", "bo'ysunish" yoki jazo berish holatlari ko'p

uchraydi va bu zoʻravonlikni keltirib chiqaruvchi omillardir. Ayollarga nisbatan zoʻravonlikni kamaytirish uchun omillarni har doim hisobga olish zarur. Madaniy oʻzgarishlar, huquqiy oʻzgarishlar va taʼlim sohasidagi islohotlar va tizimning takomillashishi va ijtimoiy yordam tizimining rivojlanishidagi oʻzgarishlar ayollarga nisbatan zoʻravonlikga qarshi kurashish uchun omillar hisoblanadi.

Yuqoridagi aytib oʻtilgan harakatlarning sodir etuvchi shaxslar huquqiy va dunyoviy ilmsizligi, oilaviy muhitda normal tarbiya olmaganligi va nosogʻlom fikrlashi oqibatida sodir etishadi. Hozirgi kunda Jahon internet tarmogʻining ommalashishi va yoshlarning ilmga yoki qaysidir ijodiy faoliyatga sarflashning oʻrniga bekorchi narsalarga misol uchun turli xil online oʻyinlarga sarflashi oqibatida hayot yoʻlidagi maqsadlarining qulashi hattoki oʻzining atrofidagilarga boʻlgan munosabatining oʻzgarishiga asos boʻladi. Yoshlar orasidagi ommalashgan online qimor va shunga oʻxshash oʻyinlar ham oilaviy tinchlikni buzishga olib keladi.

Koʻp hollarda zoʻravonliklar mast holatda sodir etiladi va bunday mastlik holatlari oqibatida oilaviy janjallar yuzaga keladi va alkagol isteʼmol qilgan shaxs tomonidan oila aʼzolari aziyat chekadi. Chet el olimlarning nazariyasiga yuzlanadigan boʻlsak jinoyatchilik jinoyat sodir etishga moyil insonlar oqibatida sodir etilishi va jinoyat sodir etilishiga moyil insonlar genetik yoki muhit oqibatida yuzaga keladi. Jinoyatchilikning asosan ishsizlik yoki ilmiy tizim rivojlanmagan hududlarda koʻp uchraydi. Bu turdagi ijtimoiy xavfli harakatlar koʻp sodir etiladigan hududlarda profilaktika ishlarini olib borib, jinoyatchilikni oldini olish uchun maktablarda, mahallalarda targʻibot ishlarini olib boorish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2022-yil 26 aprel kuni Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida bo‘lib o‘tgan matbuot anjumanida O‘zbekistonda oilaviy zo‘ravonlik holatiga oid ma’lumotlar [taqdim etildi](#). 2021 yilda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarining 87 foizi oilada sodir etilgan. 2021 yilda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ayollar va qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlari yuzasidan 39343 ta murojaat kelib tushgan. Ularning 34330 tasi yoki 87 foizi oilada sodir etilgan. 2021 yil davomida ichki ishlar organlariga xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlar yuzasidan 39 343 ta murojaatlar kelib tushdi. Ularning barchasiga himoya orderlari rasmiylashtirib berildi. Himoya orderlarining 378 tasi voyaga yetmagan, 9861 tasi yoshlar (18–30 yosh), 29104 tasi 30 yoshdan katta xotin-qizlarga berilgan. Himoya orderlarning 26667 tasi turmush o‘rtoqlari, 1559 tasi qaynionalar, 1128 tasi kelinlar hamda 9989 tasi boshqa shaxslarga nisbatan rasmiylashtirilgan. Xotin-qizlarga nisbatan qayd etilgan zo‘ravonlik holatlarining 34330 tasi yoki 87 foizi oilada sodir etilgan. Murojaatlarni o‘rganishda 106 ta jinsiy, 234 ta iqtisodiy, 18777 ta ruhiy, 13658 ta jismoniy zo‘ravonlik hamda 7174 ta tazyiq holatlar aniqlangan. Qo‘llanilgan himoya orderlari natijada 20769 ta holatda oila yarashtirildi, 15142 tasida nizo bartaraf etildi, 921 tasida oila ajrashdi, 2222 ta holatda nizo bartaraf etilmadi. Bundan xulosa chiqarish kerakki oila bu shaxsiy hayotdir va oiladagi janjal va zo‘ravonlik to‘g‘ridan to‘g‘ri oilada ulg‘ayayotgan yosh avlodlarga ta’sir qiladi. Bolani kamolotga yetishi uchun har bir ota-ona ma’suliyatli bo‘lsa, bolalarning ulg‘ayishi, ta’lim olishi rivojlanadi. Prezidentimizning hozirgi kundagi biz yoshlar uchun yaratib bergan ta’lim, sportdagi imkoniyatlari bizning ilmdagi, sportdagi va yuksak marralarga erishishimizga turki bo‘ldi. Har bir oiladagi bolalar, ayollar baxtli yashashga

haqlidir. Mamlakatimizdagi huquqiy maslahatlar va oilaviy zoʻravonlikka qarshi kurash boʻyicha targʻibotlar tegishli tashkilotlar tomonidan olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR:

1. World Health Organization. (2021). Violence against women prevalence estimates, 2018: global, regional and national prevalence estimates for intimate partner violence against women and global and regional prevalence estimates for non-partner sexual violence against women. World Health Organization.
2. United Nations Economic and Social Affairs (2015). The World's Women 2015, Trends and Statistics, p. 159.
3. "Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida"gi OʻzRQ561-sonli Qonun. 02.09.2019. (<https://lex.uz/docs/-4494709>).
4. <https://moiti.uz/oz/services/library>.
5. Alimov, S. K. (2021). The impact of human migration on the ethosphere of emigrant country: Philosophical and ethical analysis. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 74-79.
6. Alimov, S. K. (2022). Tazyiq va zoʻravonlikka uchragan ayollarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish boʻyicha xorijiy tajriba.